“MIDNIGHT’S CHILDREN” VA “BOQIY DARBADAR” ROMANLARIDA MIF VA VOQELIKNING UYG‘UNLASHUV MEXANIZMLARI

Jo‘raboyeva Xilola Raxmonjon qizi
Toshkent viloyati Chirchiq shahri 1-maktab ingliz tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada Salmon Rushdiyning “Midnight’s Children” (“Yarim tun farzandlari”) hamda Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanlarida mifologik tafakkur va tarixiy-real voqelikning badiiy uyg‘unlashuvi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda sehrli realizm poetikasining ontologik, narrativ, xronotopik va funksional-g‘oyaviy mezonlari asosida ikki asarning mifologik qatlamlari, tarix va hujjatning badiiy vazifasi, vaqt va makonning tashkil etilishi, inson va tabiatning g‘ayritabiiy talqini hamda diniy-madaniy an’analarning o‘zaro munosabati yoritiladi. Tahlil natijasida har ikki roman real va noreal qatlamlarni qarama-qarshi qo‘yish emas, balki ularni yagona badiiy olamda birlashtirish orqali tarixiy haqiqatni yangicha idrok etishga xizmat qilishi aniqlanadi. Biroq Rushdiy mifologik obrazlarni ko‘proq kinoyaviy va desakralizatsion ruhda qo‘llasa, Isajon Sulton ularni ma’naviy-axloqiy va universal mazmun bilan uyg‘unlashtiradi.

Kalit so‘zlar: *sehrli realizm, mif, voqelik, mifologik sinkretizm, tarixiy xotira, xronotop, Salmon Rushdiy, Isajon Sulton, “Midnight’s Children”, “Boqiy darbadar”.*

KIRISH

XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi adabiy jarayonda tarixiy voqelikni mif, afsona, diniy tasavvur va g‘ayritabiiy hodisalar bilan birlashtirish muhim poetik tamoyillardan biriga aylandi. Bunday yondashuv, ayniqsa, sehrli realizm doirasida voqelikning birgina mantiqiy yoki ratsional izoh bilan cheklanmasligini ko‘rsatadi. Salmon Rushdiyning “Midnight’s Children” va Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” romanlari mazkur poetik hodisani turli madaniy muhitlarda namoyon qiluvchi

qimmatli badiiy manbalardir. Rushdiyning romani 1981-yilda nashr etilib, shu yili Buker mukofotiga sazovor bo‘lgan bo‘lsa1, Isajon Sultonning romani dastlab 2010-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida e’lon qilingan2, 2011-yilda kitob holida chop etilgan va keyinchalik 2019-yilda ingliz tilida ham nashr etilgan3.

Ikki asar o‘rtasida qariyb o‘ttiz yillik vaqt farqi bo‘lishiga qaramay, ularning poetik tabiatida muhim mushtarakliklar mavjud. Har ikkala romanda Sharq mifologiyasi va diniy an’analar zamonaviy tarix bilan tutashtiriladi; g‘ayritabiiy hodisalar esa oddiy, aniq va ishonarli hayotiy tafsilotlar bilan yonma-yon beriladi. Eng muhimi, qahramonning shaxsiy taqdiri jamiyat, xalq va hatto insoniyat tarixining katta jarayonlari bilan bog‘lanadi. Shu jihatdan mazkur asarlarni qiyoslash sehrli realizmning turli milliy adabiy muhitlarda qanday shakllanishini anglash imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi - “Midnight’s Children” va “Boqiy darbadar” romanlarida mif hamda voqelikning birlashish usullarini aniqlash, ular orasidagi tipologik va poetik yaqinlik hamda farqlarni ochib berishdan iborat. Tadqiqotning obyekti ikki roman bo‘lsa, predmeti ulardagi mifologik qatlam, tarixiy voqelik, hikoyalash usuli, xronotop va diniy-madaniy obrazlarning o‘zaro munosabatidir.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot qiyosiy-tipologik yondashuvga asoslanadi. Ikki yozuvchi o‘rtasida bevosita ijodiy ta’sir yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri iqtibos munosabatini tasdiqlovchi dalil mavjud emas. Shu bois romanlar o‘rtasidagi o‘xshashliklarni bevosita ta’sir natijasi sifatida emas, balki V.M. Jirmunskiy tomonidan ishlab chiqilgan tipologik qiyos tamoyili asosida ko‘rish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tamoyil o‘xshashliklarni, bir tomondan, bevosita aloqa natijasida yuzaga keladigan hodisalarga, ikkinchi

1 Rushdie S. Midnight’s Children. – London: Jonathan Cape, 1981.
2 Isajon Sulton. Boqiy darbadar: roman // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2010. – № 6. – B. 15–67.
3 Sulton I. The Eternal Wanderer / transl. by C. Fort. – Costa Mesa (CA): Mazda Publishers, 2019.

tomondan esa yaqin ijtimoiy-tarixiy va madaniy sharoitlarda mustaqil shakllanadigan tipologik hodisalarga ajratadi.4 "Midnight's Children" va "Boqiy darbadar" o'rtasidagi o'xshashliklar ikkinchi turga mansub. Ular ikki yozuvchining sehrli realizm poetikasiga, Sharq mifologik merosiga va zamonaviy tarixning mifologik talqiniga bo'lgan umumiy qiziqishidan kelib chiqadi. Ayni paytda ikki yozuvchi ham G. Garsia Markes ijodi bilan tanish, zero Rushdi Markes haqida maqolalar yozgan, Isajon Sulton esa romanida Markes nomini bevosita tilga oladi5. Demak, ikki roman o'rtasida Lotin Amerikasi sehrli realizmi orqali bilvosita genetik aloqa ham mavjud.

Tahlilda sehrli realizmni belgilovchi to'rtta mezon qo'llanadi: ontologik mezon - real va g'ayritabiiy olamlarning bir badiiy makonda birgalikda mavjudligi; narrativ mezon - hikoyachining mo'jizaviy hodisaga munosabati va muallifning izoh bermaslik strategiyasi; xronotopik mezon - vaqt, makon va shaxs haqidagi odatiy tasavvurlarning buzilishi; funksional-g'oyaviy mezon esa sehrli unsurlarning e'tiqodiy yoki diskursiv vazifasini belgilaydi.

Qiyosiy tahlil uchun yetti yo'nalish asos qilib olinadi: mifologik manba, vaqt va voqealarning sinxronlashuvi, tarixiy hujjat va real faktlarning vazifasi, shaxs chegaralarining o'zgarishi, tana va tabiatning sehrli talqini, mo'jizaga munosabat hamda Sharq hikoyachilik an'analarining ta'siri. Mazkur yo'nalishlar asosida matnlardagi umumiy va farqli poetik mexanizmlar izchil ko'rib chiqiladi.

NATIJALAR

Avvalo, ikki roman kompozitsiyasining o'ziga xosligi mif va tarixning uyg'unlashuvini tushunishda muhimdir. "Midnight's Children" uch kitob va o'ttiz bobdan tashkil topgan. Asar markazida 1947-yil 15-avgustda, Hindiston

4 Жирмунский В. М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979.
5 Isajon Sulton. Boqiy darbadar: roman // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2010. – № 6. – B. 56–57.

mustaqillikka erishgan paytda tug‘ilgan Salim Sinoy turadi. Qahramon o‘z hayoti, oilasi va mamlakat tarixini bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan jarayon sifatida hikoya qiladi. Uning shaxsiy biografiyasi 1915-yildan boshlangan oilaviy tarix, Hindistonning bo‘linishi, urushlar va favqulodda holat kabi yirik tarixiy voqealar bilan chambarchas tutashadi.

“Boqiy darbadar” esa uch qism va “Xotima”dan iborat bo‘lib, uning voqealari an’anaviy xronologik ketma-ketlikda emas, balki mozaik tarzda tashkil etilgan. Qadimiy darbadar haqidagi rivoyat, Tiyonshondagi avliyo bilan bog‘liq voqealar, genetika markazi, harbiy samolyotlar va keng geografik hududni qamrab olgan bo‘ron hodisasi turli davr va makonlarni yagona badiiy markazga birlashtiradi. Demak, Rushdiyda tarixiy jarayon asosiy chiziq bo‘lib, hikoyachi uni oldinga-orqaga qaytishlar orqali parchalab beradi; Isajon Sultonda esa tarixning o‘zi mozaik shaklda namoyon bo‘ladi, turli bo‘laklarni esa umumiy ilohiy-ma’naviy mazmun birlashtiradi.

Ikki romanning boshlanishi, ya’ni ilk jumlalari ham ularning poetikasi haqida muhim ma’lumot beradi. "Midnight’s Children" hikoyachining tug‘ilishi haqidagi jumla bilan boshlanadi. Salim o‘zining Bombay shahrida tug‘ilganini aytadi va darhol ertak formulasini, ya’ni "bir bor ekan, bir yo‘q ekan" iborasini qo‘llaydi, keyin esa bu formulani rad etib, tug‘ilgan sanasini aniq ko‘rsatadi 6. Birinchi jumlaning o‘zida ertak va tarixiy hujjat, afsonaviy vaqt va aniq sana to‘qnashadi. Bu to‘qnashuv butun romanning, umuman, sehrli realizmning asosiy tamoyilini ifodalaydi, zero g‘ayritabiiy va real bir matnda, hatto bir jumlada birga mavjud.

“Boqiy darbadar”ning “Ibtido” deb nomlangan boshlang‘ich qismi esa tabiat tasviri bilan ochiladi: "Jaziraning top-toza moviy osmonida bir parcha oq bulut suzmoqda edi" 7 Osmondagi oddiy bulutning kelib chiqishi realistik aniqlikda izohlanadi, biroq keyinchalik uning muqaddas shaxs ustiga soya solishi bu tabiiy

6 Rushdie S. Midnight’s Children. – London: Jonathan Cape, 1981. – P. 16.
7 Isajon Sulton. Boqiy darbadar: roman // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2010. – № 6. – B. 15.

hodisaga diniy-ma’naviy ma’no yuklaydi. Shunday qilib, Rushdiyda tarixiy aniqlik ertakona tafakkur bilan qorishsa, Isajon Sultonda tabiat hodisasi muqaddaslik bilan uyg‘unlashadi.

MUHOKAMA

Ikki roman o‘rtasidagi eng muhim qiyosiy nuqtalardan biri mifologik sinkretizm masalasidir. “Midnight’s Children”da hind mifologiyasi, islomiy an’analar, xristianlik bilan bog‘liq obrazlar va “Ming bir kecha” an’anasi o‘zaro qorishadi. Yarim tunda tug‘ilgan bolalarning soni, Shiva va Parvati nomlarining personajlarga berilishi, Salimning Ganesha obraziga qiyoslanishi kabi holatlar mifologik qatlamni zamonaviy siyosiy va ijtimoiy hayotga olib kiradi.[9] Biroq muqaddas obrazlar oddiy insoniy muhitga ko‘chirilgani sababli ular an’anaviy sakral maqomini yo‘qotadi. Mif bu yerda tayyor diniy haqiqat sifatida emas, balki zamonaviy voqelikni talqin qilish va unga tanqidiy nigoh bilan qarash vositasi sifatida ishlaydi.

Isajon Sultonning romanida esa mifologik qatlam boshqa poetik yo‘nalishda shakllanadi. Asarning markaziy rivoyat asoslaridan biri Yevropa adabiy an’anasidagi Axasfer haqidagi afsona bilan bog‘liq bo‘lsa-da, muallif bu syujetni Sharq diniy tasavvurlari bilan qayta mazmunlashtiradi. "Mahkum – bir Muborak Kishi edi"8 timsoli orqali turli diniy an’analarning belgilarini birlashtirishga intilish kuzatiladi. Qahramonning tug‘ilishi, uning atrofidagi tabiat hodisalari va diniy ramzlar oddiy tasodif sifatida emas, ma’naviy mazmun kasb etuvchi belgilar sifatida taqdim etiladi.

Shu asosda ikki yozuvchining mifga munosabatida muhim farq aniqlanadi. Rushdiy mifologiyani kundalik hayotga tushirib, uni kinoya, parodiya va siyosiy tanqid bilan qayta ishlaydi. Ya’ni mif desakralizatsiya qilinadi. Isajon Sultonda esa aksincha, mifning muqaddas va ma’naviy imkoniyati kuchaytiriladi: qadimiy yoki boshqa madaniyatga tegishli rivoyat yangi diniy-falsafiy mazmun bilan boyitiladi.

8 Isajon Sulton. Boqiy darbadar: roman // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2010. – № 6. – B. 16.

Shu ma’noda birinchi roman sinkretizmning duragaylashgan, ikkinchisi esa universallashtiruvchi ko‘rinishini namoyon etadi.

Tarix va shaxs munosabati ham ikki asarning umumiy poetik mexanizmlaridan biridir. Salim Sinoyning hayoti Hindiston tarixining o‘ziga xos timsoliga aylanadi: qahramon boshidan kechirgan shaxsiy hodisalar mamlakatdagi siyosiy burilishlar bilan parallel kechadi. Shu sababli individual biografiya milliy xotira shakliga ega bo‘ladi. “Boqiy darbadar”da esa insonning alohida taqdiri uzoq tarixiy va diniy vaqt bilan tutashtiriladi. Darbadarlik motivi bir insonning qismati doirasidan chiqib, insoniyatning abadiy izlanishi, jazosi va ma’naviy savollariga ulanadi.

Vaqt va makonning tashkil etilishi ham sehrli realizmning muhim belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. “Midnight’s Children” tarixiy jihatdan muayyan davrlarni qamrab olsa-da, hikoyachining xotirasi, oldindan aytishlari va ortga qaytishlari sababli vaqtning tabiiy ketma-ketligi buziladi. “Boqiy darbadar”da esa turli davrlar va geografik makonlar bir syujet maydonida tutashadi. Natijada oddiy tarixiy xronologiya o‘rnini mifologik vaqt egallaydi. Bu vaqt modeli inson hayotini faqat ma’lum bir tarixiy davrga emas, uzoq davom etuvchi ma’naviy tarixga bog‘lash imkonini beradi.

Shuningdek, har ikki asarda realistik detal g‘ayritabiiy hodisani ishonarli ko‘rsatishning asosiy vositasidir. Sehrli hodisa alohida, fantastik “olam” sifatida ajratib qo‘yilmaydi; u oddiy hayotning o‘zida sodir bo‘ladi. Aynan shu xususiyat ontologik va narrativ mezonlarning birlashuvini ta’minlaydi. Hikoyachi mo‘jizani doim ham tushuntirib bermaydi, o‘quvchini esa uni voqelikning tabiiy bir qismi sifatida qabul qilishga undaydi. Bunday usul tarixiy fakt va mifologik tasavvurni qarama-qarshi qutblar emas, bir butun badiiy haqiqatning ikki tomoni sifatida ko‘rsatadi.

XULOSA

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, “Midnight’s Children” va “Boqiy darbadar” romanlarida mif va voqelikning uyg‘unlashuvi tasodifiy badiiy bezak emas, balki asarlarning g‘oyaviy-poetik tuzilishini belgilovchi asosiy mexanizmdir. Har ikki yozuvchi real tarixni mifologik tafakkur yordamida qayta ko‘rib chiqadi, shaxsiy taqdirni keng tarixiy jarayonlar bilan bog‘laydi va g‘ayritabiiy hodisalarni kundalik hayot tafsilotlari bilan bir makonda tasvirlaydi.

Shu bilan birga, ularning poetik strategiyasi bir xil emas. Rushdiy tarixni “tuzlamalashtirish”ga o‘xshash aralashtirish strategiyasi orqali turli mifologik va madaniy qatlamlarni birlashtiradi; mifologik obrazlarni ko‘pincha kinoyaviy va tanqidiy mazmunda qayta ishlaydi. Isajon Sulton esa turli diniy va mifologik an’analarni yagona ma’naviy makonda birlashtirib, mifning sakral va universal mazmunini kuchaytiradi. Demak, ikki roman o‘rtasidagi tipologik yaqinlik sehrli realizmning umumiy poetik qonuniyatlarida, farq esa ushbu qonuniyatlarning milliy-madaniy tafakkurga mos ravishda qayta talqin qilinishida ko‘rinadi.

Natijada mif va voqelikning uyg‘unligi ikki romanda ham tarixni oddiy faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki inson xotirasi, e’tiqodi, milliy o‘zligi va ma’naviy tajribasi bilan birgalikda anglash imkonini beradi. Mazkur xususiyat asarlarning badiiy qiymatini oshirish bilan birga, Sharq adabiyotida sehrli realizm poetikasining turli shakllarda namoyon bo‘lishini tadqiq etish uchun ham muhim nazariy asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davronova R. A. Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” asarida postmodernizm xususiyatlari // Buxoro davlat universiteti Ilmiy axboroti. – 2025. – № 10(3).
2. Жирмунский В. М. Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979.
3. Quronov D. O‘ylashga undovchi asar // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2010. – № 6. – B. 15–18.
4. Rushdie S. Midnight’s Children. – London: Jonathan Cape, 1981.

5. Sulton I. Boqiy darbadar: roman // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2010. – № 6. – B. 15–67.
6. Sulton I. The Eternal Wanderer / transl. by C. Fort. – Costa Mesa (CA): Mazda Publishers, 2019.
7. “Sharq yulduzi” jurnali. – Toshkent, 2010. – № 6.